



Diyora AG'AYEVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

E-mail: dioraaayeva@gmail.com

QarDU professori A.Jabborov taqrizi asosida

TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISHISHDA MOTIVATSIYA VA PSIXOLOGIK TAYYORLIK

Аннотация

Ushbu maqolada, talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatga kirishish, nafaqat bilim olish, balki o'z-o'zini anglash, maqsadlarni aniqlash va ularga erishish uchun psixologik va ichki kuchlarni shakllantirishni ham talab etadi. Maqolada motivatsiyaning turli shakllari va ularning talabalarning pedagogik faoliyatga qiziqishi va qatnashishiga ta'siri, shuningdek, psixologik tayyorgarlikning ahamiyati va uning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishdagi roli ko'rib chiqiladi. Psixologik tayyorgarlik, talabalar uchun o'z-o'zini anglash va ijtimoiy-emosional qobiliyatlarni rivojlantirish, stressni boshqarish va ta'lim jarayonida o'zlarining potentsialini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: Kasb, mahorat, motiv, o'quv jarayoni, o'quv faoliyat, o'qituvchi faoliyati, muloqot, pedagogik qobiliyatlar psixologiyasi, talaba, jamoa, psixologik tayyorlik, o'z-o'zini boshqarish, bilim, psixologik tayyorgarlik.

MOTIVATION AND PSYCHOLOGICAL READINESS OF STUDENTS TO ENGAGE IN PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Annotation

In this article, the role of motivation and psychological training in the process of entering students into pedagogical activity is analyzed. Entering pedagogical activities requires not only gaining knowledge, but also self-awareness, identifying goals and forming psychological and internal forces to achieve them. The article examines different forms of motivation and their influence on students' interest and participation in pedagogical activities, as well as the importance of psychological training and its role in ensuring success in the educational process. Psychological preparation is necessary for students to develop self-awareness and social-emotional skills, manage stress and realize their full potential in the learning process.

Key words: Profession, skill, motive, educational process, educational activity, teacher activity, communication, psychology of pedagogical abilities, student, team, psychological readiness, self-management, knowledge, psychological training.

МОТИВАЦИЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ К ЗАНЯТИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

Аннотация


В данной статье анализируется роль мотивации и психологической подготовки в процессе вхождения студентов в педагогическую деятельность. Вхождение в педагогическую деятельность требует не только получения знаний, но и самосознания, определения целей и формирования психологических и внутренних сил для их достижения. В статье рассматриваются различные формы мотивации и их влияние на интерес и участие студентов в педагогической деятельности, а также значение психологического тренинга и его роль в обеспечении успеха в образовательном процессе. Психологическая подготовка необходима студентам для развития самосознания и социально-эмоциональных навыков, управления стрессом и полной реализации своего потенциала в процессе обучения.

Ключевые слова: Профессия, умение, мотив, процесс обучения, учебная деятельность, деятельность учителя, общение, психология педагогических способностей, ученик, коллектив, психологическая готовность, самоконтроль, познание, психологическая готовность.

Kirish. Pedagogik faoliyat, nafaqat ma'lum bir kasbni egallash, balki shaxsiy va professional jihatdan rivojlanishni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Talabalarning pedagogik faoliyatga kirishishi, ular uchun faqat bilim olish jarayoni emas, balki o'z-o'zini anglash, maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun psixologik tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Faollikka undash majmuyi va psixik tayyorlik ta'lim jarayoniga kirishga asosiy omil sifatida ta'sir qiladi. Motivatsiya, talabalarni o'qishga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, pedagogik ishda faol ishtirok etishga undaydi. Psixologik tayyorgarlik esa, talabalarni pedagogik jarayonda yuzaga keladigan stresslar, qiyinchiliklar va ijtimoiy-emosional vaziyatlarga tayyorlaydi. Ular o'zlarining ichki resurslarini boshqarish va o'z ustida ishlash orqali pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli kirishlari mumkin. Davlatimizda ilm fanni rivojlantirish maqsadida ta'limga qo'shimcha va o'zgarishtirish kiritilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" hamda "ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" kabi ustuvor

vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, talabalarning o'quv jarayoniga moslashishi ularning o'quv faoliyati davomida samarali natijalarga erishishi va ijtimoiy faollashishida amaldagi pedagogik shart-sharoitlar va mavjud metodikalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" hamda "ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan.[1] O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi" asari mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi.[2] Pedagogik faoliyatda ta'lim jarayoniga talabalarning moslashuvi, dars mashg'ulotlarida samarali natijalarga, yaxshi muvaffaqiyatlarga erishishda ta'lim jarayonidagi yaratilgan pedagogik qulay shart-sharoitlar va interfaol metodikalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o'tilgan.



(1-rasm)

P.F. Kapteyev ta'lim jarayonini samarali amalga oshirish pedagog shaxsiga xos bo'lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi (1-rasm). O'qituvchi xususiyati maxsus va shaxsiy holatda namoyon bo'ladi. Shaxsiy xususiyatga hissiy-irodaviy holatlar kiradi. Maxsus xususiyatlarga esa obyektivlik (o'qituvchining ilmiy tayyorgarligi) va subyektivlik (shaxsiy o'qituvchilik sifatlar) kiradi.[3] L.Ya.Kolominskiy izlanishlarida pedagogning talabalarga munosabati uning mehnati samarasi natijasida tashkil etilish muhimligini ta'kidlagan edi. Uning fikricha, bu ta'lim jarayonida, faoliyatda pedagogik mahoratning asosiy qismi bo'lib, o'qituvchi bilan talabalarining o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayonga bog'liqdir[4]. Psixolog olim V. A. Kan-Kalik pedagogik muloqot va muomalani tadqiq qilib shunday fikr bildirgan edi. Pedagoglik ishi o'z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning jarayonida, pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarining shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining subyekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikni o'rganishdir. Shu bilan birga, bu jarayonda talabalarni yuqori natijalarga erishish uchun qanday omillar ta'sir etishini aniqlash hamda pedagogik faoliyatga kirishishda zarur bo'lgan psixologik va motivatsion omillarni aniqlash tadqiqotning vazifalari sifatida belgilanishi kerak.

V.G. Leontievning fikriga ko'ra, motiv - bu shaxsning hozirgi ehtiyojlarini affektiv va ongli ravishda qayta ishlash, odamlarning maqsadlariga erishish uchun qo'llanadigan ichki va tashqi kuchlarning birlashmasi bo'lib, uni o'rganishda, ishlashda, ijtimoiy faoliyatda yoki boshqa turli sohalarida o'zini qanday tutishiga ta'sir qiluvchi motivatsiyaning turidir yoki shaxsiy shakllanish. Shunday qilib, motiv - bu shaxs uchun muhim bo'lgan, uni ma'no bilan to'ldiradigan va hissiy tajribalar qabul qilingan qarorlarining ahamiyatini anglash bilan birga keladigan faoliyatning asosi deb hisoblash mumkin. V.G. Leontiev, shuningdek, motiv inson faoliyatining ichki manbai ekanligini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyatga kirishishda motivatsiya talabalarining o'qishga, o'qituvchilik faoliyatini boshlashga qiziqishlarini oshiradi va ularni rag'batlantiradi:

Tahlil va natijalar. Yaqin yillarda olingan natijalarga asoslanib, biz motivatsion tayyorgarlik, psixologik tayyorlik holati boshlang'ich darajada bo'lishi mumkin emas degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ta'lim jarayonini faol o'rganishda, talabalar pedagogik faoliyatga kirishishda, kasbiy faoliyatini yaxshi o'zlashtirishda ular psixologik tayyorlik tushunchasi shakllangan bo'lishi kerak. Talabalarining pedagogik faoliyatga kirishishdagi motivatsiyasi va psixologik tayyorgarliklarining yaxshiligi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishda turtki vazifasini bajaradi. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, talabalar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarini shuncha yaxshi yo'lga qo'ya oladi. Bu jarayonni bevosita talabalar kuzatib borishadi va o'zlarining pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida unumli foydalanishadi.

Yangi tahlil va tadqiqotlar asosida motivatsiya va psixologik tayyorlikning quyidagi xususiyatlari aniqlangan:

1. Maqsadga erishishga intilish: Talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishadi. Masalan, pedagogik faoliyatga kirishishdagi maqsadlar — talabalarga ta'lim berish, o'quvchilarga yordam ko'rsatish, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish kabi aniq va o'lchab bo'ladigan maqsadlarga qaratilgan.

2. Natija uchun rag'batlantirish: Motivatsiya natijalarga erishishga bog'liq bo'lgan rag'batlarni yaratadi. Bu motivatsiya, asosan, tashqi (muvaffaqiyatga erishish, mukofotlar, ijtimoiy ma'qullash) yoki ichki (o'zini o'zi rozi qilish, o'rganish va o'sish istagi) rag'batlarga asoslanishi mumkin.

3. Muammolarni hal qilishga tayyorlik: Motivatsiya talabalarni muammolarni hal qilishga va qiyinchiliklarga duch kelganda ularni yengish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishga undaydi. Pedagogik faoliyatda bu o'qituvchilikdagi qiyinchiliklarni, talabalarining turli holatlarda qanday muvaffaqiyatli ishlashini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchilik faoliyatini boshlashda kerakli ko'nikmalarni rivojlantirish va talabalar bilan samarali ishlashni maqsad qilishadi. O'qituvchiga xos bo'lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlar umumiy ko'rinishda quyidagicha bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik faoliyatga kirishishda muloqot eng murakkab tuzilmadir. Chunki muloqot orqali pedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi pedagogning talabaga ta'siri amalga oshiriladi. Talaba dars jarayonida shuni anglab yetadiki demak pedagogik faoliyatda pedagoglik muloqotiga ega bo'lish bu shaxslararo munosabatni yo'lga qo'yib olish demakdir. Olingan natijalarga asoslanib, biz motivatsion tayyorgarlik, psixologik tayyorlik holati boshlang'ich darajada mumkin emas degan xulosaga kelishimiz mumkin. Talabalarni pedagogik faoliyatga kirishishda motivatsiya va psixologik tayyorgarlik bir-birini mustahkamlovchi omillardir.

Motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning to'g'ri yo'naltirilishi va integratsiyasi talabalar uchun pedagogik faoliyatga kirishishda samarali va muvaffaqiyatli natijalar keltiradi. Ushbu natijalar, talabalarni pedagogik faoliyatga kirishish jarayonida motivatsiya va psixologik tayyorgarlikning o'rnini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Takliflar. Talabalarining psixologik holatini baholash va ularni mos ravishda yo'naltirish uchun qanday diagnostik vositalardan foydalanish

Pedagogik jamoa sifatida ijtimoiy qo'llab quvvatlash va ularning faoliyatini mustahkamlash.

O'qituvchilarni talabalar bilan samarali muloqot qilish, ularning ruhiy holatini tushunish va motivatsiyasini oshirishda metodikalardan foydalanish.

Motivatsiya va psixologik tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlikni va psixologik barqarorlikni yaratish talabalarni tashkil etish va mustahkamlash.

Xalqimizning kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli albatta bilimli tajribali pedagogga muhtojdir. O'sib kelayotgan yosh avlodni albatta shu mehri daryo o'qituvchilarimiz tarbiyalaydi va bilim beradi. Hozirgi kunda o'qituvchi shaxsining jamiyatda tutgan o'rnini qancha ta'riflasak ham ozlik qiladi, o'qituvchiga bo'lgan hurmat, o'qituvchiga bo'lgan e'tibor juda ham yaxshi.

1. Mirziyoyev Sh. M.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Mirziyoyev Sh. M.. “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi” O'zbekiston – 2017.
3. Каптерев П.Ф., Столбун В.Д. Психология воспитания. М.-1999 г. - 640 с.
4. Kolominskiy L.Ya.. “Shaxs rivojlanishining ijtimoiy psixologiyasi “ Nashr qilingan yili: 2009 yil Nashriyot: Oliy maktab
Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/306620/top-yakov-kolominskij>
5. Кан Калик V.A. Учителей о педагогическом общении.М.: Просвещение. 1987 г. 92 с.
6. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
7. Nishanova Z.T., Dustmuhammedova Sh. A., Tulyaganova Sh. T. “Pedagogik psixologiya”. Toshkent -2011
8. V. Karimova. “Psixologiya”. — Toshkent.: Sharq. 2000.
9. Davletshin M.G.. To'ychiyeva Sh.A. Movlonov S.M. M. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
10. Ag'ayeva, D. Z. Talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvi: Ijtimoiy-psixologik omillar. // Golden brain, 2024. 2(21), 119-125.
11. Sa'dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179.